



"O'zbek geologiya qidiruv" AJ
Yagona aksiyadorining
2023-yil "05" 07 dagi
~~-9R-~~ -son qaroriga
9-ILOVA

**"O'ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV" AKSIYADORLIK JAMIYATI
AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG'ILISHI TO'G'RISIDAGI
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatni (AJ) aksiyadorlari umumiy yig'ilishining huquqiy maqomini, uning faoliyat tartibini, huquq va majburiyatlarini va qarorlar qabul qilish tartib-taomilini belgilaydi.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, (bundan buyon - Qonun) "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunlari va boshqa qonun hujatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-415-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 2-iyuldagagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 176-sonli va qarori hamda Aksiyadorlik jamiyatlarini faoliyatini samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha Komissiya yig'ilishining 2015-yil 31-dekabrdagi 9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksiga, "O'zbek geologiya qidiruv" AJning (bundan buyon - Jamiyat) Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishi shart. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

3. Aksiyadorlar yillik umumiy yig'ilishida Jamiyatning Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasini saylash, Ijroiya organi rahbari bilan tuzilgan shartnoma muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish to'g'risidagi masalalar hal qilinadi, shuningdek Jamiyatning yillik hisoboti, Ijroiya organi va Kuzatuv kengashining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasi va biznes rejasi ijrosi yuzasidan ko'rileyotgan chor-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlar hamda boshqa hujjalarni ko'rib chiqiladi.

4. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

5. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

6. Jamiyatning barcha oddiy aksiyalari bitta aksiyadorga tegishli bo'lganda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilmaydi. Qonun, Jamiyat ustavi va mazkur Nizom bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi kerak, jamiyatning imtiyozli aksiyalari ushbu Qonunga muvofiq ovoz berish huquqini olishi hollari bundan mustasno. Bunda aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish, uni chaqirish va o'tkazish tartibini hamda muddatlarini belgilovchi qoidalari qo'llanilmaydi, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish muddatlariga taalluqli qoidalari bundan mustasno.

II. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatlari va qarorlarni qabul qilish

7. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

- Jamiyatni qayta tashkil etish;

- Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- Jamiyat Kuzatuv kengashining (shu jumladan mustaqil a'zolarini) va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish;
- Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish;
- o'z aksiyalarini olish;
- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, uning rahbari Boshqaruv raisini saylash (tayinlash), jamiyat ijroiya organi- Boshqaruv raisi lavozimi uchun tanlov o'tkazilganda g'olib chiqqan nomzodni Boshqaruv raisi lavozimiga tayinlash, avval tayinlangan Boshqaruv raisi bilan tuzilgan mexnat shartnomani uzaytirish to'g'risida qaror qabul qilish va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno;
- Jamiyat taftish komissiyasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash;
- jamiyatning yillik hisobotini va yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;
- Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
- Jamiyat Kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat Kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining xulosalarini eshitish;
- imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatları" va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 35-moddasida va Jamiyat ustavida nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;
- aksiyadorlar umumiylig'ili shuning reglamentini tasdiqlash;
- aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;
- O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatları" va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 8-bobiga muvofiq, Jamiyat tomonidan balans qiymati yoki xarid qilish qiymati tegishli bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilangan sanada Jamiyat so'f aktivlari miqdoridan ellik foizdan ortiq summani tashkil qiladigan mulk bo'yicha yirik bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatları" va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 9-bobiga muvofiq, Jamiyatning affillangan shaxsi bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etish majburiyatlarini qabul qilish va xabar berish shakllarini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilish;
- ichki nazorat, dividend siyosati, manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;
- mustaqil professional tashkilotlar — maslahatchilarni jalb qilgan holda biznes jarayonlar va loyihamalar Jamiyatning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi har yillik tahvilini o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilish;
- Jamiyatning kundalik xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni aniqlash;

- xayriya (homiylik) yoki beg'araz yordamni ijro organiga berish va eng ko'p miqdorlarini belgilash;
- elektron pochta bo'yicha (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash orqali), shuningdek o'z vakolatlarini vakilga berish yoki video-konferens-aloqa rejimida umumiy yig'ilish o'tkazish orqali ovoz berish tartibini belgilash (tasdiqlash);
- minoritar aksiyadorlar qo'mitasini (minoritar aksiyadorlar qo'mitasi tashkil qilingan holatda) Jamiat mablag'lari hisobiga ta'minlash uchun xarajatlarni qoplash tartibini belgilash (tasdiqlash);
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishida hisobot beradigan Jamiatning boshqaruv va nazorat organlari ma'ruzasi (hisoboti) shakli va mazmuniga talablarni belgilash, umumiy yig'ilish faoliyatini belgilash;
- auditorlik tekshiruvi o'tkazish (shu jumladan, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlarni tashqi auditorlik tekshiruvi bo'yicha) va uning xizmatlari uchun to'landigan eng yuqori haq miqdorini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish;
- O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga muvofiq Korporativ boshqaruv Kodeksining tavsiyalarini bajarmaslik yoki Korporativ boshqaruv Kodeksida nazarda tutilgan axborotni oshkor etmaganligi uchun jamiat mansabdor shaxslariga nisbatan javobgarlik choralarini belgilash;
- belgilangan tartibda jamiat yillik biznes-rejasini tasdiqlaydi;
- sanoq komissiyasi a'zolari va sonini tasdiqlaydi;
- qonun hujjatlari va Jamiat Ustaviga muvofiq boshqa masalalarni hal qilish.

8. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar hal qilinishi uchun Jamiatning Kuzatuv kengashi va ijroiya organiga berilishi mumkin emas.

III. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishda qatnashish huquqi. Aksiyadorlarni va ularning vakolatli vakillarini ro'yxatdan o'tkazish

10. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan Jamiat aksiyadorlarining reestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

11. Jamiat aksiyadorining talabiga ko'ra aksiyadorga u aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Jamiat aksiyadorlarining reestriga kiritilganligi to'g'risida axborot taqdim etishi shart.

12. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida Jamiat aksiyadorlari reestrda qayd etilgan aksiyadorlar ishtirok qilish huquqiga egalar, ularning vakolatli vakillari, sanoq komissiyasi, ichki audit xizmati xodimlari, auditorlik tekshiruvini o'tkazgan auditorlik tashkiloti vakili, Jamiatning Kuzatuv kengashi a'zolari, ijroiya organi, Taftish komissiyasi a'zolari, shuningdek minoritar aksiyadorlar qo'mitasi vakili (mavjud bo'lган holatda) va boshqalar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi Raisining taklifi bo'yicha ishtirok qilish huquqiga ega bo'ladi.

13. Jamiatning ijroiya organi a'zolari, Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasi vakillari, shuningdek auditorlik tashkiloti vakillari Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida o'z organlari hisobotlari bilan shaxsan ishtirok qilishlari kerak.

14. Jamiatning Kuzatuv kengashi, Taftish komissiyasi a'zoligiga va Jamiat Boshqaruv raisii lavozimiga nomzodlar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida o'z nomzodlari ko'rib chiqilishida ishtirok qilishlari mumkin.

15. Umumiy yig'ilishda qatnashish uchun aksiyadorlar yoki ularning vakolatlari vakillari yig'ilish o'tkazilishi to'g'risidagi bildirishnomada ko'rsatilgan joy va vaqt bo'yicha belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishlari kerak.

16. Agar qonunchilikda uzgacha qoida belgilangan bo'lmasa aksiyadorning shu jumlada aksiyadorlik bitishuv tuzgan aksiyadorlarning vakili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergen va vakil qilingan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi-sharifi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan yeri, pasportiga oid ma'lumotlar) bo'lishi lozim. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga doir ishonchnoma uning rahbarining imzosi va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan (muhr mavjud bo'lgan taqdirda) tasdiqlangan holda beriladi.

17. Aksiyador istalgan vaqtida Aksiyadorlar umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini almashtirish yoki ushbu yig'ilishda shaxsan ishtirot qilish huquqiga ega.

18. Umumiy yig'ilishda qatnashish uchun kelgan jismoniy shaxslar bo'lgan aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish passport yoki aksiyadorning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat ko'rsatilgach, vakilga nisbatan esa notarial tartibda tasdiqlangan ishonchnoma ko'rsatilgach amalga oshiriladi.

19. Yuridik shaxs — Jamiat aksiyadorining rahbari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishdagi o'z vakolatlarini lavozimga tayinlash to'g'risidagi huquqiy hujjat hamda shaxsni tasdiqlovchi hujjat asosida amalga oshiradi.

20. Yuridik shaxs — Jamiat aksiyadorining vakili aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ushbu yuridik shaxs rahbarining imzosi yoki bunga ta'sis hujjatlari bilan vakil qilingan boshqa shaxsning imzosi va yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlangan uning nomiga berilgan ishonchnoma mavjud bo'lgan taqdirda qatnashishi mumkin.

21. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashish uchun aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish Jamiat aksiyadorlari reestriga binoan birinchi ilovada keltirilgan shakl bo'yicha qayd etish ro'yxati tuziladi.

22. Qayd etish ro'yxati juzlangan, tartib raqami qo'yilgan, ip o'tkazib tikilgan va Jamiat muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

23. Umumiy yig'ilishni o'tkazishda aksiyadorlar (ularning vakillari) qayd etish ro'yxatiga imzo chekadilar va Jamiat aksiyadorlari reestri ma'lumotlari bo'yicha belgilangan har bir aksiyadorning ovoz beruvchi aksiyalar sonidan kelib chiqib ovoz berish byulletenini oladilar (byulleten namunasi ikkinchi ilovada keltirilgan).

24. Agar yig'ilish qatnashchisi bir yoki bir necha aksiyadorning manfaatlarini ifodalashga ishonchnoma taqdim etsa, u holda unga u ifodalayotgan aksiyador (aksiyadorlar) uchun ovoz berishga byulleten beriladi, qayd etish ro'yxatida esa u ifodalayotgan aksiyadorning familiyasi qarshisiga "_____ ta (soni) ovoz beruvchi aksiyalar bo'yicha _____"da berilgan ishonchnoma bo'yicha" degan yozuv qayd etiladi hamda vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatiladi.

IV. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyoragarlik ko'rish

25. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini mazkur Nizomning 3-bandida belgilangan muddatda sifatli tayyorlash va o'tkazish uchun ijroiya organi korporativ konsultant (mavjud bo'lgan holatda) bilan birgalikda quyidagilarni amalga oshiradi:

Jamiatning Kuzatuv kengashi qarori bilan tanlangan auditorlik tashkilotlari bilan auditorlik tekshiruvini o'tkazish, shu jumladan Moliyaviy hisobotning xalqarostandartlariga

muvofiq moliyaviy hisobot tayyorlash, Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi audit tashkil qilish bo'yicha shartnomalar tuzadi, ushbu shartnomalarda tekshiruv yakunlanishining aniq muddatlari ko'rsatiladi;

Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi audit o'tkazilgandan so'ng yillik umumi yig'ilish o'tkaziladigan sanagacha ikki haftadan kichiktirilmay Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tuzilgan har yilgi moliyaviy hisobot e'lon qilinishini ta'minlaydi.

Ijroiya organ quyidagilarni ishlab chiqadi (tayyorlaydi):

Aksiyadorlar umumi yig'ilishini o'tkazish tartibi (reglamenti) loyihalari, har bir yo'naliish bo'yicha asoslar ilova qilingan holda sof foyda taqsimlanishi (zararlar o'mi qoplanishi) va Aksiyadorlar umumi yig'ilishi tomonidan ko'rib chiqiladigan boshqa hujjalalar, shuningdek sanoq komissiyasini tashkil qilish bo'yicha takliflar. Aksiyadorlar yillik umumi yig'ilishi kun tartibiga kiritish uchun aksiyadorlar tomonidan kelib tushgan takliflarni, shu jumladan Jamiatning Kuzatuv kengashiga va Taftish komissiyasiga (taftishchi sifatida) ko'rsatilgan nomzodlar to'g'risidagi axborotni va boshqa ma'lumotlarni umumlashtiradi;

Jamiatning yillik hisoboti va yillik biznes-rejasি, shuningdek Jamiatning o'rta muddatli va uzoq muddatli davrdagi rivojlanish strategiyasi loyihasi, Jamiatning asosiy yo'naliishlari va maqsadlariga asoslanib uning aniq muddatlari belgilanadi;

biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishi to'g'risida va Jamiatning rivojlanish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rileyotgan choralar to'g'risidagi ijroiya organ hisoboti, auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini tanlash bo'yicha tanlov o'tkazish va h.k.

26. Ijroiya organi mazkur Nizomning 30-bandida qayd etilgan materiallar ishlab chiqilgandan (tayyorlangandan) so'ng ularni Jamiatning Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritadi.

27. Aksiyadorlarning umumi yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rileyotganda Kuzatuv kengashi quyidagilarni belgilaydi:

- umumi yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni;

- umumi yig'ilishning kun tartibini;

- umumi yig'ilish o'tkazish uchun jamiat aksiyadorlarining reestri shakllantiriladigan sanani;

- umumi yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga va davlat vakiliga xabar qilish tartibini;

- umumi yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rileyotganda aksiyadorlarga va davlat vakiliga taqdim etiladigan axborot (materiallar) ro'yxatini;

- ovoz berish byulletenining shakli va matnini.

28. Aksiyadorlar umumi yig'ilishi o'tkaziladigan sana ushbu yig'ilish o'tkazilishi to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab o'n kundan oldin va o'ttiz kundan keyin belgilanishi mumkin emas.

29. Aksiyadorlar umumi yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar Aksiyadorlar umumi yig'ilishi o'tkaziladigan sanagacha yetti kundan kechiktirilmay, biroq o'ttiz kundan oldin bo'limgan muddatda Jamiatning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta bo'yicha yuboriladi (3-sonli ilovaga muvofiq).

30. Jamiat aksiyadorga mustaqil ravishda yoki Jamiat va qimmatli qog'ozlar bozorining malakali ishtirokchisi o'rtaida taalluqli xizmatlar ko'rsatish yuzasidan

tuziladigan shartnomaga muvofiq qimmatli qog'ozlar bozorining malakali ishtirokchisi orqali bildirish xati yuborish huquqiga ega.

31. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- Jamiyatning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;
- umumiyligi yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;
- Jamiyat aksiyadorlarining reestri shakllantiriladigan sana;
- umumiyligi yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar;
- umumiyligi yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rileyotganda aksiyadorlarga va davlat vakiliga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni va davlat vakilini tanishtirish tartibi.

32. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rileyotganda aksiyadorlarga va davlat vakiliga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotga (materiallarga) Jamiyatning yillik hisoboti, Jamiyatning yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining) va auditorlik tashkilotining xulosasi, Jamiyatning Kuzatuv kengashining Boshqaruv raisi bilan tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish, shartnomani qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi to'g'risidagi xulosasi, shuningdek Jamiyatning Kuzatuv kengashi hamda taftish komissiyasi a'zoligiga (taftishchiligidagi) nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, Jamiyatning ustaviga kiritiladigan o'zgartish va qo'shimchalar loyihasi yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi loyihasi, shuningdek Kuzatuv kengashining aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi kun tartibi bo'yicha munosabati kiradi.

33. Umumiyligi yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rileyotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi majburiy bo'lgan qo'shimcha axborotning (materiallarning) ro'yxati qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanishi mumkin.

34. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining jami eng kamida bir foizi egasi hisoblangan aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyatning moliya yili yakunlangandan so'ng to'qson kundan kechiktirilmagan muddatda Aksiyadorlarning yillik umumiyligi yig'ilishi kun tartibi bo'yicha (4-sonli ilovada qayd etilgan namuna bo'yicha), shu jumladan foydani taqsimlash masalarini kiritishga, hamda boshqaruv va nazorat organlari a'zoligiga son tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli, bundan kuzatuv kengashining mustaqil a'zoligiga nomzodlar ko'rsatish mustasno, bunda belgilangan tartibda aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi o'tkazilgunga qadar ularni almashtirish imkoniyatiga ega. (O'RQ-814, 18.01.2023y.)

35. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining kun tartibiga masala uni qo'yish sabablari, masalani kiritayotgan aksiyadorlarning (aksiyadorning) ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarining soni va turi ko'rsatilgan holda yozma shaklda kiritiladi.

36. Jamiyatning Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasi a'zoligiga nomzodlarni ko'rsatish to'g'risida takliflar kiritilganda, shu jumladan mustaqil ravishda o'z nomzodi ko'rsatilgan holatda, nomzodning ism-sharifi, unga tegishli aksiyalar soni va turi (nomzod Jamiyat aksiyadori hisoblangan holatda), shuningdek nomzodni ko'rsatuvchi aksiyadorlar ism-sharifi (nomlanishi), ularga tegishli aksiyalar soni va turi qayd etiladi.

37. Aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan kiritilgan masala aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining kun tartibiga, xuddi shuningdek ko'rsatilgan nomzodlar Jamiyatning Kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi kerak, quyidagi hollar bundan mustasno:

- aksiyador (aksiyadorlar) tomonidan mazkur Nizomning 33-bandida belgilangan muddatga rioya qilinmagan;

- aksiyadorlar (aksiyador) Jamiatning ushbu nizomning 33-bandida nazarda tutilgan miqdordagi ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo'lmasa;

- agar Jamiatning boshqaruv va nazorat organlariga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq bo'lmasa;

- takliflar qonun hujjatlari talablariga muvofiq bo'lmasa.

38. Aksiyador (aksiyadorlar) ular tomonidan Jamiatning Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasiga ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxatiga Aksiyadorlar yillik umumi yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risida xabar e'lon qilingan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirilmay o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

39. Jamiat Kuzatuv kengashining masalani aksiyadorlar umumi yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Jamiat Kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarori masalani kiritgan yoki taklif taqdim etgan aksiyadorlarga (aksiyadorga) qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

40. Jamiat Kuzatuv kengashining masalani aksiyadorlar umumi yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Jamiat Kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

IV. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumi yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish

41. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumi yig'ilishi Jamiat Kuzatuv kengashining quyidagilar asosidagi qarori bo'yicha o'tkaziladi:

- uning o'z tashabbusi asosida;

- taftish komissiyasining (taftishchining) yozma talabi;

- talabnomalar qilingan sanada Jamiat ovoz beruvchi aksiyalarining eng kamida 5% egasi hisoblangan aksiyador (aksiyadorlar) talablariga ko'ra (5-sonli ilovaga muvofiq).

42. Jamiat Kuzatuv kengashining vakolatlarini muddatdan oldin bekor qilish masalalari bo'yicha Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumi yig'ilishini o'tkazish to'g'risida talabnomalar asoslari quyidagilardan iborat (ovozi berishda ishtirok etmagan yoki qarorga qarshi ovoz bergen kuzatuv kengashi a'zolaridan tashqari):

- O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, Jamiat Ustaviga, Aksiyadorlar umumi yig'ilishi qarorlariga rioya qilmaslik;

- Jamiatga zararlar keltirilishi va aksiyadorlarning mulkiy huquqlariga ziyor yetkazilishi, shu jumladan Jamiatning moliya-xo'jalik faoliyati jiddiy yomonlashishi, foyda va rentabelligi pasayishi, ishlari va xizmatlarning realizatsiya qilinishi asossiz ravishda qisqartirilishi bilan bog'liq zararlar yetkazilishi.

43. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumi yig'ilishini o'tkazish to'g'risida talabnomalarda yig'ilish kun tartibiga kiritiladigan masalalar buning sabablari qayd etilgan holda ifodalanishi kerak. Agar Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumi yig'ilishini chaqirish Jamiat Kuzatuv kengashi a'zolarining vakolatlarini muddatdan oldin bekor qilish to'g'risidagi masala kiritilishi bilan bog'liq bo'lsa, bunday yig'ilish chaqirig'i to'g'risidagi talabnomalar Jamiat Kuzatuv kengashi vakolatlarini muddatdan oldin bekor qilish

to'g'risidagi masaladan tashqari, Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash masalalarini kun tartibiga kiritish to'g'risidagi takliflarni o'z ichiga olishi kerak.

44. Jamiatning Kuzatuv kengashi Jamiat taftish komissiyasining yoki Jamiatning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra chaqiriladigan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishi kun tartibidagi masalalarning ta'rifiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

45. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyadordan (aksiyadorlardan) chiqqan taqdirda, bu talabda umumiyligi yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) ismi-sharifi (nomi), unga tegishli aksiyalarning soni, turi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

46. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirishni talab qilgan shaxs (shaxslar) tomonidan imzolanadi.

47. Jamiatning taftish komissiyasi yoki Jamiatning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirish to'g'risida talab taqdim etgan sanadan e'tiboran o'n kun ichida Jamiat Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirish to'g'risida yoki yig'ilishni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilishi kerak.

48. Jamiat taftish komissiyasining (taftishchisining) yoki Jamiatning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin, agar:

- talab taqdim etilgan sanada aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirishni talab qilayotgan aksiyador (aksiyadorlar) ovoz beruvchi aksiyalarining besh foiziga ega bo'lmasa;

- kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masalalardan birortasi ham aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining vakolat doirasiga kirmasa;

- kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masala qonun xujjalari talablariga muvofiq bo'lmasa.

49. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirish to'g'risida yoki bunday yig'ilish chaqirig'i rad qilinishi to'g'risida Jamiat Kuzatuv kengashining asoslangan qarori bunday yig'ilish chaqirig'ini talab qilayotgan shaxslarga qaror qabul qilingan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirilmay yuboriladi.

50. Jamiat Kuzatuv kengashining aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

51. Mazkur Nizomning .46-band bilan belgilangan muddat mobaynida Jamiatning Kuzatuv kengashi tomonidan Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilinmagan yoki bunday yig'ilish chaqirig'i rad qilinishi to'g'risida qaror qabul qilingan holatda Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishi bunday yig'ilish chaqirig'ini talab qilayotgan shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkin.

52. Bunday hollarda aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarning o'rni aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiatning mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin.

53. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumi yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik Jamiatning Kuzatuv kengashi tomonidan yoxud qonun hujjatlari bilan belgilangan holatlarda mazkur Nizom bilan belgilangan tartibda Aksiyadorlarning umumi yig'ilishini chaqirayotgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

VI. Aksiyadorlar umumi yig'ilishi kvorumi

54. Agar aksiyadorlarning umumi yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami elliq foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lga aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumi yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.

55. Agar imtiyozli aksiyalar kun tartibidagi faqat bir yoki bir necha masalalar bo'yicha ovoz bersa, yig'ilish kvorumi taqdim qilingan oddiy aksiyalar soni bo'yicha belgilanadi, qayd etilgan masalalar bo'yicha ovozlarni hisoblash esa ovoz beruvchi oddiy va imtiyozli aksiyalarning umumi yig'ilishi soni bo'yicha amalga oshiriladi.

56. Yig'ilish boshlanishining belgilangan vaqtidan so'ng 120 daqiqadan ko'proq vaqt mobaynida kvorum hali yig'ilman bo'lsa, Aksiyadorlarning takroriy umumi yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumi yig'ilishini o'tkazishda kun tartibining o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

57. Agar aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan yig'ilishi o'mniga chaqirilgan takroriy umumi yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami qirq foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lga aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning takroriy umumi yig'ilishi vakolatli bo'ladi.

58. Aksiyadorlarning takroriy umumi yig'ilishini o'tkazish to'g'risida xabardor qilish mazkur Nizom bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

59. Kvorum bo'lmanligi sababli aksiyadorlarning umumi yig'ilishini o'tkazish sanasi yigirma kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, umumi yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lga aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan umumi yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lga aksiyadorlarning reestriga muvofiq aniqlanadi.

VII. Aksiyadorlar umumi yig'ilishning ishchi organlari

60. Quyidagilar umumi yig'ilish ishchi organlari hisoblanadi: rayosat, sanoq komissiyasi, kotib (kotibiyyat).

61. Aksiyadorlarning umumi yig'ilishi rayosati (prezidiumi) va raisi Aksiyadorlarning umumi yig'ilishida saylanadi. Aksiyadorlarning umumi yig'ilishi Jamiat Kuzatuv kengashi raisi tomonidan, uning uzrli sabablar bo'yicha yo'qligida esa - Jamiat Kuzatuv kengashi a'zolaridan biri tomonidan olib boriladi.

62. Aksiyadorlar umumi yig'ilishi raisi yig'ilish rayosatiga boshchilik qiladi, yig'ilish olib borilishini ta'minlaydi va o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lga barcha vakolatlarga ega bo'ladi Aksiyadorlar umumi yig'ilishi raisi yig'ilish rayosatiga boshchilik qiladi, yig'ilish olib borilishini ta'minlaydi va o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lga barcha vakolatlarga ega bo'ladi.

63. Umumi yig'ilish raisi aksiyadorlarning umumi yig'ilishini audio-video tasmaga yozib olish va Internet tarmog'ida translatsiya qilish masalalarni ruxsat berish (sanksiya berish) xuquqiga ega.

64. Umumi yig'ilish raisi yig'ilish o'tishiga rahbarlik qiladi, ishchi organlari ishini muvofiqlashtiradi, masalalarni muhokama qilish tartibini belgilaydi, ma'ruzachilarning nutq so'zlashlari vaqtini chegaralaydi, yig'ilishni olib borish va ovoz berish bo'yicha tushuntirishlar beradi, zalda tartib o'rnatilishini nazorat qiladi.

65. Aksiyadorlarning umumi yig'ilishi raisi umumi yig'ilish bayonnomasini imzolaydi.

66. Ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning umumi yig'ilishida ishtirot etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun Jamiatning Kuzatuv kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tuzilib, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi aksiyadorlarning umumi yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

67. Sanoq komissiyasi funksiyalarini bajarish uchun mustaqil ekspertlar jalg qilingan taqdirda, ular sanoq komissiyasi ishini amalga oshiradilar.

68. Sanoq komissiyasining tarkibi kamida uch kishidan iborat bo'lisi kerak. Sanoq komissiyasi tarkibiga Jamiat Kuzatuv kengashining a'zolari, taftish komissiyasining a'zolari (taftishchisi), Jamiat Boshqaruvi a'zolari, ishonchli boshqaruvchi, shuningdek ana shu lavozimlarga nomzodi ko'rsatilgan shaxslar kirishi mumkin emas.

69. Aksiyadorlarning umumi yig'ilishida ovoz berish "Jamiatning bitta ovoz beruvchi aksiyasi - bitta ovoz" qoidasi bo'yicha amalga oshiriladi, Jamiat Kuzatuv kengashi a'zolari saylovlari bo'yicha kumulyativ ovoz berish o'tkaziladigan holatlar bundan mustasno.

70. Aksiyadorlarning umumi yig'ilishida kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berish tegishli ovoz berish uchun byulletenlar bilan amalga oshiriladi.

71. Ovoz berilganida ovoz beruvchi qaysi masala bo'yicha ehtimol tutilgan ovoz berish variantlaridan faqat bittasini qoldirgan bo'lsa, o'sha masala bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinadi. Mazkur talabni buzgan holda to'ldirilgan ovoz berish byulletenlari haqiqiy emas deb topiladi va ulardagi masalalar bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinmaydi.

72. Agar ovoz berish byulletenida ovozga qo'yilgan bir nechta masala ko'rsatilgan bo'lsa, bir yoki bir nechta masalaga nisbatan bundan oldingi bandida ko'rsatilgan talabga rioya etilmaganligi byulletenning umuman haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo'lmaydi.

73. Ovozlarni hisoblash, Aksiyadorlarning umumi yig'ilishida ishtirot qilish uchun aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek ovoz berish uchun byulletenlar topshirish uchun Jamiat Kuzatuv kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tashkil etilib, uning son va shaxsiy tarkibi Aksiyadorlarning umumi yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

74. Aksiyadorlar umumi yig'ilishida sanoq komissiyasi quyidagi funksiyalarini amalga oshiradi:

- reestr asosida aksiyadorlarning umumi yig'ilishida ishtirot qilish huquqiga ega aksiyadorlar ro'yxatini tuzadi;

- ovoz berish uchun byulletenlarni va umumi yig'ilishning boshqa materiallarini topshiradi, topshirilgan byulletenlar hisobini yuritadi.

- umumi yig'ilishda qatnashish uchun aksiyadorlarni (ularning vakillarini) ro'yxatdan o'tkazadi;

- ishonchnomalar va ular tomonidan beriladigan huquqlar hisobini yuritadi;

- ovoz berish byulletenlarini va umumi yig'ilishning boshqa materiallarini tarqatadi;

- Aksiyadorlarning umumi yig'ilishi o'tkazilgunga qadar aksiyadorlarga kun tartibi bo'yicha kerakli axborotni taqdim qiladi;

- aksiyadorlar umumi yig'ilishi kvorumi mavjudligini aniqlaydi;

- aksiyadorlar (ularning vakillari) tomonidan umumi yig'ilishda ovoz berish huquqini amalga oshirish munosabati bilan paydo bo'luchchi masalalarni tushuntiradi;

- ovoz berishga qo'yilayotgan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini tushuntiradi;
- ovoz berishning belgilangan tartibini va aksiyadorlarning ovoz berishda qatnashishi huquqini ta'minlaydi;
- ovozlarni sanaydi va ovoz berish yakunlarini chiqaradi;
- ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnomma tuzadi;
- ovoz berish uchun byulletenlarni arxivga topshiradi.

VIII. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishni olib borish tartibi

75. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini olib borish tartibi (reglament) aksiyadorlarning har bir umumiy yig'ilishida mazkur nizomga muvofiq tasdiqlanadi.

76. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishning raisi umumiy yig'ilish sanoq komissiyasini, rayosatini va kotibiyatni (kotibni) saylashni taklif etadi.

77. Umumiy yig'ilishni olib borish tartibi yig'ilishning boshlanishi va taxminan tamom bo'lish vaqtini, nutqlar qancha davom etishi va tanaffuslarni, kun tartibidagi masalalarning izchilligini, kun tartibi masalalari bo'yicha ma'ruzachilarining familiyalari va lavozimlarini, ovoz berishni amalga oshirish va uning natijalarini e'lon qilish tartibini nazarda tutadi.

78. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida muxokama qilinayotgan masala bo'yicha yig'ilishning har bir qatnashchisi belgilangan vaqt doirasida so'zga chiqish huquqiga ega. Ushbu huquqni ta'minlash aksiyadorlar umumiy yig'ilishi raisining zimmasida bo'ladi.

79. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ijroiya organi va kuzatuv kengashining mukofot va kompensatsiyalari miqdorini oshkor etadi, shuningdek taqsimlashga taklif etilayotgan sof foyda, dividendlar miqdorining asoslanishi, ularning AJ dividend siyosatiga muvofiqligining baholanishini (zarurat tug'ilganda sof foydaning muayyan qismini AJni rivojlantirish ehtiyojlariga yo'naltirishning tushuntirilishi va iqtisodiy asoslanishini) e'lon qiladi.

80. Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda qatnashish istagini bildirganlar umumiy yig'ilish kotibiyatiga muhokama qilinadigan masalani ko'rsatgan holda yozma buyurtmanoma berishlari lozim.

81. Kun tartibining barcha masalalari muhokama qilingandan keyin rais aksiyadorlar umumiy yig'ilishini yopiq deb e'lon qiladi.

82. Jamiat umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchi shaxsga shunday shaxs hisobidan o'zi to'ldirgan byulleten nusxasini olish imkonini beradi.

IX. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi

83. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kotibiyatining miqdoriy va shaxsiy tarkibi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Jamiatning Korporativ konsultanti Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kotibi sifatida saylanishi (chiqishi) mumkin.

84. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kotibiyati quyidagilarni amalga oshiradi:

- umumiy yig'ilish o'tkazilishi jarayonining bayonnomasini tuzadi;

- yozma arizalar bo'yicha kun tartibidagi masalalar muhokamasida ishtirok qilishni istaganlar qaydnomalarini yuritadi;

- umumiy yig'ilish tamom bo'lgandan so'ng o'n kundan kechiktirmay aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonini ikki nusxada tuzadi.

85. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

- jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning umumiy soni;

- umumiy yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning soni;

- umumiy yig'ilishning raisi (raxbari) va kotibi, yig'ilish kun tartibi;

- ma'ruzalarning asosiy mazmuni, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar.

86. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi videokonferensaloqa orqali o'tkazilgan hollarda yig'ilish bayonnomasiga ushbu yig'ilishning video yozuvi shartli ravishda ilova qilinadi.

87. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

88. Sanoq komissiyasi bayoni yig'ilishning maxsus qarori bilan tasdiqlanmaydi, balki ma'lumot uchun qabul qilinadi hamda umumiy yig'ilish bayonnomasiga qo'shib qo'yilishi kerak.

89. Ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnomada tuzilganidan va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi imzolanganidan keyin ovoz berish byulletenlari sanoq komissiyasi tomonidan muhrlanadi hamda saqlab qo'yish uchun Jamiyatning arxiviga topshiriladi.

90. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonlari ular rasmiylashtirilgandan so'ng o'n kun muddatda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining "Davlat mulki" axborot tizimida joylashtiriladi.

X. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlarining bajarilishi

89. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari aksiyadorlarga quyidagicha ma'lum qilinadi:

- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tugagandan so'ng ularni e'lon qilish;

- jiddiy holat yuzaga kelgan sanadan boshlab ikki ish kuni mobaynida jiddiy holat to'g'risida xabardagi ma'lumotni oshkor qilish.

90. Jamiyat aksiyalari fond birjasi listingida bo'lgan holatda, Jamiyat fond birjasining rasmiy veb-saytida taalluqli axborotni ham e'lon qilishi shart.

91. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlari bajarilishi jarayoni ustidan nazorat, agar qarorda boshqacha qayd etilmagan va yig'ilish bayonnomasida aks ettirilmagan bo'lsa, Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

92. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlari Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok qilayotgan va ishtirok qilmayotgan aksiyadorlarga tegishli qismi bo'yicha barcha aksiyadorlar tomonidan bajarilishi shart.

Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi
to'g'risidagi Nizomga
4-sonli ILOVA

"_____ AJ

Aksiyador _____ ning
Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi kun tartibiga masala kiritish to'g'risidagi

TAKLIFI

Tegishli aksiyalar soni:

_____ dona oddiy aksiya;
_____ dona imtiyozli aksiya.

Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi kun tartibiga kiritiladigan masalaning ifodalaniishi (uning
kun tartibiga kiritilish sabablari ko'rsatiladi):

Kuzatuv kengashi a'zoligiga ko'rsatiladigan nomzodlar (F.I.Sh., ish joyi, lavozimi,
nomzodga tegishli AJ aksiyalari soni, turlar bo'yicha ajratilgan):

Taftish komissiyasi a'zoligiga ko'rsatiladigan nomzodlar (F.I.Sh., ish joyi, lavozimi,
nomzodga tegishli AJ aksiyalari soni, turlar bo'yicha ajratilgan):

Ijroja organiga ko'rsatiladigan nomzodlar (F.I.Sh., ish joyi, lavozimi, nomzodga tegishli AJ
aksiyalari soni, turlar bo'yicha ajratilgan):

F.I.Sh. _____
(imzo, sana)